
JARAYON



#Qadring_baland_bo'lsin_ona_tilim

Viloyat hokimining maslahatchisi S.Tongotarova ish rejasiga asosan Qo'shtepa tumanidagi Davlat xizmatlari markazida bo'ldi va O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqida"gi Qonuni hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 61-sonli qarori ijrosi yuzasidan lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosiga bosqichma-bosqich o'tish, ish hujjatlarining yuritilishi holatlari o'rganildi.



O'rganishlar davomida aniqlangan kamchilik hamda muammolar yuzasidan tegishli tavsiya va ko'rsatmalar berildi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi "Davlat tili haqida"gi Qonuni qabul qilinganligining 33 yilligi hamda "O'zbek tili bayrami kuni" munosabati bilan belgilangan o'zbek tili oyligi doirasida til bayramini keng targ'ib qiluvchi chellenj tashkil etildi. Unda viloyat hokimining maslahatchisi S.Tongotarova ham ishtirok etdi.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#),

2022-10-06 08:32:03